



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» ((<https://tilvaadabiyot.uz>))

<https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 9-son



4 sentyabr kuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi 10 160 ta maktabda 2023-2024 o'quv yilining ilk dars soatlari boshlandi. Joriy o'quv yilida 700 000 nafardan oshiq bolajonlar umumta'lim maktablarining 1-sinfiga qabul qilindi.

Ularga 12 turdagi o'quv qurollari, maktab sumkasi, darsliklar majmuasidan iborat Prezident sovg'alari topshirildi.



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimariyam RAXMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

M U N D A R I J A

Yorqinoy Ismonova. Romanda roviy bola obrazi	3
Elyor O'ralov. O'zbek tilshunosligi taraqqiyotida lingvistik ekspertizaning o'rni	6
Shohista Shermamatova. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari	8
Shohista Shermamatova. Nodiraning «Eshit» radifli g'azalining o'quv adabiyotlarda berilgan talqinlari xususida	10
Shohsanam Bobojonova. Ma'naviyat leksik-semantik kategoriyasining «Axloq» ma'naviy guruhi	12
Dildora Husanova. Erkin Vohidov ijodi sarchashmalarida Navoiyga xos talqinlar.....	15
Sevara Parmonova. Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» tazkiri - turkiy tazkirachilikning muhim manbalaridan biri sifatida..	17
Xolida Tojiyeva. Lirik asarlar badiiyatini o'quvchilarga yetkazish metodlari.....	20
Barnoxon Mamadaliyeva. Malaka oshirish kurslarida global istiqbolga ega bo'lgan o'qituvchilar imidji	22
Sitora Saidmuradova. Malaka oshirishdagi o'qituvchilarning kasbiy Kompetentlik mezonlarini tarbiyalashda zamonaviy Interfaol texnologiyalardan foydalanish modellari	24
Vasila Mamadayupova. Kichik maktab yoshida ingliz tili grammatik ko'nikmalarini shakllantirish	27
Dilorom Tashova. Istiqbol davri o'zbek she'riyatidagi transformatsion Jarayonlar: monostix va geometrik shakl	30
Fazliddin Sharipov. Yangi - amaliy bosqichda so'z turkumlari va grammatik kategoriyalar tasnifi	32
Sayyora Kurolova. Qolip konstruksiyalarining murakkab gaplarda qo'llanilish mezonlari	34



Ilmiy-metodik elektron jurnal

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>

Gulbahor Ashurova. Chorsham she'rlarida navoiy obrazi talqini	37
Matluba Shukurova. "Ayol" konseptining badiiy matndagi gender o'ziga xosliklari	40
Kamola Abdulloyeva. Muallif modalligi in'ikosi sifatida tasviriy ifodalar	42
Surayyo Raximova. Inson resurslarini boshqarishga bo'lgan yondashuvlar va ularning tahlili	44
Madinabonu Irgasheva. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga zaxira kadrlar tayyorlash jarayonida ularning liderlik sifatlarini rivojlantirish dolzarb ijtimoiy pedagogik muammo sifatida	47
Mavjuda Alimbekova. Jadid namoyondalari asarlaridagi morfologik va fonetik vositalarning o'ziga xos xususiyatlari	49
Nafosat Raimova. Expression of gender characteristics in anthropocentric proverbs	52
Sayyora Yorova. Ingliz va o'zbek tibbiy nutqining pressuppozitiv mohiyati	54
Alijon Allaberdiyev. Buxoro o'g'uz shevalarida ravishdoshning grammatik xususiyatlari	56
Saodat Kambarova. Adabiyot darslarida badiiy-estetik tafakkur tarbiyasi	58
Jamoliddin Nurmukhammadov. Adabiy laboratoriyada kitobxonlik masalalarini tanqidiy o'rganishning ahamiyati	61

Kamola Abdulloyeva,
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti*

MUALLIF MODALLIGI IN'IKOSI SIFATIDA TASVIRIY IFODALAR

Abstract: The significance of figurative means as a means of expressing the author's thoughts and mentality is not sufficiently studied in stylistics, so it is necessary to consider them separately. Analyzing their properties is based on revealing their hidden properties, and more attention has been paid to this issue recently.

Keywords: figurative means, literary portrait, modality, portrait types.

Аннотация: Значение графических средств как средства выражения мысли и мировоззрения автора недостаточно изучено в стилистике, поэтому необходимо рассмотреть их отдельно. Анализ их свойств основан на выявлении их скрытых свойств, и в последнее время этому вопросу уделяется больше внимания.

Ключевые слова: графические средства, литературный портрет, модальность, виды портретов.

Tasviriy vositalar orqali ifodalanuvchi grafik urg'u adresatning e'tiborini adabiy matnning alohida qismlariga qaratishga xizmat qiladi hamda matnda mavjud bo'lgan muhim konseptual elementlar tuzilishini kognitiv jihatdan faollashtiradi va pirovardida muallif modalligini ifodalash vazifasini bajaradi. Muallif mushohadasi prizmasi orqali qahramonlarning ruhiy olamini ochib beruvchi portret, peyzaj, interyer kabi badiiy matnning tarkibiy qismlari asar personajlarini tavsiflabgina qolmay, balki muallif modalligi, diskursiv shaxsi va ichki olamini aks etirish vazifasini ham bajaradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, badiiy portret murakkab tuzilishga ega bo'lib, muallifning o'ziga xos uslubi hamda aksiologik jihatdan ahamiyatli hisoblanuvchi konseptual xususiyatlar bilan tavsiflanadi [6].

Darhaqiqat, badiiy matndagi portret muallif diskursiv shaxsi orqali ifodalanuvchi dunyo tasvirini aks ettiruvchi elementlardan biri sanaladi. Hozirgi kunga qadar ko'pgina tadqiqotlarda badiiy butunlikning ajralmas qismi bo'lgan portretning qanchalik murakkab tuzilma ekanligini atroflicha tahlil qilingan. Peyzaj va portret uyg'unlikda badiiy asarning kompozitsion-nutqiy shakllaridan biri sifatida qahramonlar hamda sujetni tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. V.A. Kuxarenkoning fikricha, qahramon shaxsining tashqi belgilarini (kiyim, soch turmagi, xulq-atvor va boshqalar) o'z ichiga olgan badiiy portret qahramonlar xarakteri va o'ziga xosliklarini aks ettiruvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi [5].

Lingvistik tadqiqotlarning hozirgi bosqichida "portret" atamasini ikki yoqlama tushunish mumkin, dastlab, qahramonlarning tashqi ko'rinishini tasvirlash orqali ularning badiiy xususiyatlari vositasi va ikkinchidan, "shaxsga xos bo'lgan tashqi va ichki yaxlitlik" sifatida tahlil qilingan [Akbarova S.A, 2005]. Xususan, lingvistik adabiyotda xilma-xil tasvirlanuvchi badiiy portret tipologiyasi muammosiga katta e'tibor beriladi. O'zbek tilining izohli lug'atida ta'riflanishicha, "Adabiy portret – adabiy asarda personajlar qiyofasining tasviri va tavsifi" hisoblanadi. Boshqa bir manbaada esa "ijodkor portret yaratishda yuz, ko'z, qosh, lab, burun kabi a'zolari tasvirlash bilan chekenmay, gavda, qo'l, bosh harakatlari, gapirish ohangi va surati, kulishi, yig'lashi kabi inson ruhiyati bilan bog'liq faoliyatlarga ham katta e'tibor qaratadi", degan fikr qayd etiladi [3].

Portretni kognitiv tahlil qilar ekanmiz, bu mavzu uning tasnif ko'lamini izchil o'rganishni taqozo etadi. Shuni ta'kidlash joizki, ko'plab tadqiqotlarda eng ko'p uchraydigan badiiy portret turlari quyidagilar:

- yoyiq portret aynan bir qahramonning tashqi ko'rinishiga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarni aks ettirib, vaziyatga bog'liq holda o'zgarishi, badiiy asar sujetiga mos tarzda yangi xususiyatlarga ega bo'lib borishi mumkin;
- statik portret – qahramonga xos bo'lgan umumlashtirilgan portret bo'lib, unga tegishli xususiyatlar sifat jihatidan aniqligi va o'zgarmasligi nuqtayi nazaridan tavsiflanadi. Shuningdek, u ixcham tuzilishga egaligi bilan xarakterlanib, makon va zamonga oid buyumlar, belgilarga moslashgan bo'ladi.
- dinamik badiiy portret qahramonga xos bo'lgan tashqi ko'rinishning tavsifi hisoblanib, xulq-atvori bilan birga xarakter, shu jumladan o'zini tutish, yuz ifodasi, mimikalar, imo-ishoralar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Nazariy ma'lumotlarga ko'ra, portretning yoyiq hamda dinamik turi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek badiiy adabiyotida ham ijodkorlar qahramonlar xarakterini ochib berishda tasviriy vositalar, jumladan portret va uning turlaridan samarali foydalanishganini kuzatish mumkin. Zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Murod Mansurning "Judolik diyori" romanida aks ettirilgan ifodalar buning yorqin misoli bo'la oladi. Ushbu asarda ma'lum muddat davom etgan bir qancha qatag'onlarni boshdan kechirgan bo'lishiga qaramay, o'zligini bir zum bo'lsa-da yo'qotmagan, qalbidagi ilm-ma'rifat ziyosini saqlab qola olgan, iymon-e'tiqodi butun insonlar bilan bir qatorda din va diyonatdan butunlay yuz o'g'irgan, xudbin hamda zulm-zo'rlik, xiyonat yo'lga kirgan iymoni zaif kishilar bir-biriga qarama-qarshi tarzda tasvirlanadi. "Judolik diyori" romanida ijodkor tomonidan bir qancha o'zbekona obrazlar yaratilgan bo'lib, ko'plab mashaqqat-u qiyinchiliklarni boshidan kechiruvchi Sultonmurod asarning bosh qahramoni sifatida gavdalanitirilgan hamda Sultonmurodning yurtidagi hayotining ko'p qismi ta'qiblar ta'sirida tog'-u toshlarda o'tishini osongina payqash mumkin.

Asarning bosh qahramoni – murakkab tuyg'ular egasi bo'lgan Sultonmurod orqali unga xos bo'lgan xatti-harakatlarda, uning butun kechmishida ma'naviy tomondan azob-uqubatlarga giriftor qilingan millat vakillariga ishora qilmoqchidek bo'lganini his qilish mumkin:

“Men uning Bo'zsuv shamollarida qorayib, ancha dag'al tortgan yuz-ko'zlariga qarab o'tirib, yana vahmim ortib boryapti. U xontaxaning bir yonini egallab, ko'ksini berib o'tirgani uchunmi, yo aslida ham shundaymi, yelkalari kattalashib, qaddi-basti to'lishganday, o'zi ancha salobatli ko'rinardi. Rostini aytsam chilla chiqishi bilan kechalari salqin tushib, Qo'ldosh tog'amning nosrang kitel-shimini kiyib olganidan, ustiga-ustak oyog'idagi etik ham harbiylargami, kimgadir o'xshatib qo'ygan”.

* * * *

“... Uy o'rtasida arslonning o'ligiday cho'zilib, birov yotar edi! Boshi ostida bitta yostiq, o'zi taqir gilamga yuztuban cho'zilgan uxlab qolibdi”.

Yuqorida berilgan parchalarda bir qancha stilistik vositalardan foydalanilganiga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan, yozuvchi Sultonmurodning tashqi ko'rinishi aks ettirishda foydalangan epitet (**“Bo'zsuv shamollarida qorayib, ancha dag'al tortgan”**), darajalash (**“kattalashib, to'lishib, ancha salobatli”**) orqali asar qahramoni ancha qiyinchiliklarni boshidan kechirganligini, hayot sinovlarida yetarlicha toblangani haqidagi yashirin ma'noni anglash kitobxonga qiyinchilik tug'dirmaydi. Keyingi parchada qahramon muayyan vaziyatdagi holatini tasvirlashda esa metaforadan (**arslonning o'ligiday**) foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Bu orqali Sultonmurodning jasurligi, dovyurakligiga ishora sifatida arslonga qiyoslagan bo'lsa, holdan toygan, charchaganligini ifodalash maqsadida jonsiz holda tasvirlaydi. Shuni ta'kidlash joizki, yozuvchi hayot murakkabliklarini badiiy tadqiq va tahlil qilish bilan bir qatorda voqelikka nisbatan aks ettirmoqchi bo'lgan munosabatini uning portreti orqali ko'rsatadi. Muallif tomonidan ifodalangan Sultonmurodning vaziyatiga oid tasvirni kuzata turib unda qahramonning tashqi ko'rinishi hamda ichki ruhiy dunyosi o'rtasidagi moslikni anglash mumkin bo'lsa, quyidagi tasvir orqali avvalgi holatning mutlaqo aksini ko'rish mumkin:

“Ammo bir suratki ajoyib! O'zi xuddi shu iroqi gulli ko'ylakda-yu, lekin bir hurpayib, achchig'lanib turibdiki, hayron qolasiz... Shaharning urishqoq, chapani yigitlari ham bunchalik bo'lmas, bunday yovqarash qilib turmas (Tavba nimadan buncha alamzada?). Yoqa valongar, lab alam-la qimtilgan, ko'z yonaman deydi. Savatdek soch to'zg'ib ketgan”.

Sultonmurodning bu holati avvalgisidan butunlay boshqacha tasvirlangan bo'lib, unda qahramon ruhiyatidagi achchiq alamzadalik, uning ichki kechinmalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Sultonmuroddagi haqiqatga bo'lgan ishonch, bu yo'lda uning dadil qadam bosishi, unda xalq g'amiga sherik bo'lishdek oliyanob fazilatlarining mavjudligi voqealar tarkibiga singdirib yuborilgan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Yuqorida berilgan asar parchasida **kinoyadan** (ingliz tilidagi Irony) foydalanish asnosida (*Ammo bir suratki ajoyib!*), shuningdek **mubolag'a** (*bir hurpayib, achchig'lanib turibdiki, hayron qolasiz*) va **epitet** (*Yoqa valongar, lab alam-la qimtilgan, savatdek soch*) orqali Sultonmurodning holati qanchalik achinarli hamda alamzada ekanligini tasvirlaydi va bu orqali ma'no kuchaytirish, ta'kid ma'nosini ifodalash maqsad qilinganini osongina anglash mumkin. Zotan, muallif yoyiq portret vositasida qahramonning xarakteri bilan muayyan vaziyatdagi ichki kechinmalari o'rtasidagi nomutanosiblikni aks ettirishni ko'zlaganini va shu orqali o'z pozitsiyasi ta'kidlayotganini anglash mumkin.

Shuningdek, ingliz adabiyotida ham yozuvchilar asar qahramonlarini tasvirlashda portret hamda uning turlaridan o'ziga xos tarzda foydalanishini guvohi bo'lish mumkin. Jumladan, quyidagi parchada asardagi obrazning tashqi ko'rinishi, xarakteri, xulq-atvoriga xos xususiyatlarni aks ettirgani tufayli **yoyiq portretga** misol bo'la oladi:

Mr. Yang had been the first tenant she'd taken after inheriting the house; he was an immigrant from Hong Kong who had come to the United States knowing no one and speaking only fragmentary, heavily accented English. Over the years his accent had diminished only marginally, and when they spoke, Mrs. Richardson was sometimes reduced to nodding and smiling. But Mr. Yang was a good man, she felt; he worked very hard, driving a school bus to Laurel Academy, a nearby private girls' school, and working as a handyman. Living alone on such a meager income, he would never have been able to live in such a nice neighborhood. He would have ended up in a cramped, gray efficiency somewhere off Buckeye Road, or more likely in the gritty triangle of east Cleveland that passed for a Chinatown, where rent was suspiciously low, every other building was abandoned, and sirens wailed at least once a night. Plus, Mr. Yang kept the house in impeccable shape, repairing leaky faucets, patching the front concrete, and coaxing the stamp-sized backyard into a lush garden. Every summer he brought her Chinese melons he had grown, like a tithe, and although Mrs. Richardson had no idea what to do with them-they were jade green, wrinkled, and disconcertingly fuzzy-she appreciated his thoughtfulness anyway. Mr. Yang was exactly the

kind of tenant Mrs. Richardson wanted: a kind person to whom she could do a kind turn, and who would appreciate her kindness. ("Little Fires Everywhere" by Celeste Ng)

Yuqorida berilgan parchani tahlil qilarkanmiz, muallif kitobxonning e'tiborini qahramonga xos xususiyatlarga qaratish maqsadida **sifatlash** (epitet) – *knowing no one and speaking only fragmentary, heavily accented English; they were jade green, wrinkled, and disconcertingly fuzzy*, ma'no kuchaytirish, ta'kidlab ko'rsatish asnosida **mubolag'a** – *such a meager income, he would never have been able to live in such a nice neighborhood* kabi stilistik vositalardan unumli foydalangan. Shuningdek, **o'xshatish** (simile) – *more likely in the gritty triangle of east Cleveland; melons he had grown, like a tithe* hamda shaxsga xos xususiyatni jonsiz predmetga ko'chirish orqali **shaxslantirish** (personification) – *wrinkled (melons)* kabi badiiy unsurlar qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, asar muallifi bir so'z vositasida (*kind*) mohirona **so'z o'yini** (pun) yuzaga keltirganini ko'zlatish mumkin. Undagi Mr. Yang ga nisbatan yozuvchi tasvirlagan portretni **yoyiq portret** namunasi sifatida talqin qilish mumkin va yuqoridagi vositalar muallifning obrazlarga nisbatan modalligini aks ettirishga xizmat qilgan.

Badiiy matnda muallifning o'ziga xosligini ajratib ko'rsatuvchi bir qancha unsurlar mavjud sanaladi. Xususan, adabiy portret va stilistik vositalar orqali ifodalangan tasviriy kontekstlar muallif diskursiv shaxsini namoyish etuvchi (reprezentatsiyalovchi) til vositalaridan bo'lib, ular muallifga xos subyektiv modallik yoki munosabat ham maqsad va g'oyalarini ifodalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari shuni unutmashlik zarurki, badiiy asarda namoyon bo'luvchi tasviriy parchalarning o'ziga xos xususiyati stilistik va tasviriy vositalarning keng qo'llanilishida aks etuvchi stilistik markerlanganlik xususiyatida ham ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Celeste Ng "Little Fires Everywhere" .
2. Murod Mansur "Judolik diyori".
3. Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohligi so'zligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. 180-b.
4. Акбарова С.А. Лингвостилистические средства и когнитивнопрагматическая значимость художественного портрета (на материале английских художественных текстов).: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т.:2005. – 27с.
5. Кухаренко В.А. Интерпретация художественного текста. – М.: Просвещение, 1988. – С. 245.
6. Серебrenников Б.А. Как происходит отражение картины мира в языке/Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – 87–108 с.

Surayyo Raximova,

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash instituti
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasini mudiri, PhD, dotsent*

INSON RESURLARINI BOSHQARISHGA BO'LGAN YONDASHUVLAR VA ULARNING TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni boshqarish va bu jarayonning rivojlanishini muvofiqlashtirish hamda ta'lim tizimining O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanish Konsepsiyasi ifodalangan bo'lib, unda malakali kadrlarni tayyorlashni boshqarishning barcha strategik yo'nalishlari ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: kadrlarni rejalashtirish, qaror qabul qilish, kadrlar strategiyasi, menejment, xodimlarni boshqarish, kadrlarni rag'batlantirish

Shaxsning aqliy va ma'naviy talablarini qondirish hamda qobiliyat va iqtidorini shakllantirishda ta'limning muhim xususiyatlarini davlat, jamiyat va shaxs darajasida tavsiflash mezonini qabul qilingan, ya'ni davlat mamlakat aqliy va ilmiy salohiyatining rivojlanishi hamda aholining ma'naviy boyligi va huquqiy madaniyatini oshirishining, jamiyat ta'limning jamiyatni taraqqiy ettirishga yo'naltirilgan dunyoqarash va ijtimoiy mentalitet belgilari, global ma'naviy qadriyatlar shakllanishi, jamiyatda bilimli, oliy ma'lumotli, ma'naviyatli, ilmiy salohiyatli insonlar ko'payishining tarafdori bo'lsa, shaxs (inson) ta'lim orqali tabiat in'om etgan qobiliyatini rivojlantirishi, o'qish(ish)da o'zini ko'rsata olishi, kasbi, ixtisosligi, egallab turgan vazifasi uchun zarur bo'lgan bilim, o'quv, ko'nikma va tajribani egallash ehtiyojini qondiradi. Zero, o'qimishli inson ma'rifatli bo'lishi, boshqalardan bir pog'ona yuqori turishi lozim. U qancha ko'p o'qigan bo'lsa, bu daraja shunchalik yuqori bo'ladi.